



Kasb-hunarlarning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mumkinmi?
Inson hayotda nimalarni yo'qotishi mumkin-u, nimalarni undan hech kim tortib ololmaydi?



Harflarni kichrayib borish tartibida o'qing.
Bu so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini ayting.

ar**chev**, zaro'**dZ**, zera**ydi**n



Zardo'z

Ravshan Isoqov

Onajonim zardo'z chevar,
O'z hunarin jondan sevar.
Tikar qo'shib mehr qo'rin,
Quyosh boqar sochib zarin.

Zar iplari kumush, tilla,
Mohir qo'lda kirar tilga.
Yal-yal yonib, tillolanib,
Ko'z o'ynatar jilolanib.



Zardo'z chopon, zardo'z do'ppi,
Ikki yuzi shirmoy lo'ppi.
Qizlar kelar gul-gul yonib,
Tovus misol zar tovlanib.

Ko'ylakcham ham zar yoqali,
Zar do'ppim ham zar uqali.
Duo qilar ustoz – onam,
Zarga to'lsin zarrin olam.



1. Ayting-chi, she'r kimning tilidan aytilgan?
2. She'rdan zardo'zlik hunari haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. "Tikar qo'shib mehr qo'rin", deganda nimani tushundingiz?
4. She'rda **zar** so'zi necha marta qo'llanilgan?



She'rni ifodali o'qing.
Ona duosi berilgan to'rtlikni o'qing.



- Qambar Otaning she'rini o'qing.
- Uning "Zardo'z" she'ri bilan o'xshash va farqli tomonlarini ayting.



Chevar

Qambar Ota

Ko'ylakning etagiga
Gul "ekar",
Ipak ipdan yoqasiga
Gul tikar.
Kashta chatar so'zana-yu
Belbog'ga,

Do'ppisidan mo'ralaydi
Oy asta.
Chevar qizning qoyil
Kasbga mehriga,
Yuraklar rom ignasining
Sehriga.



She'rdagi ajratib ko'rsatilgan misrani izohlang.



Quyidagi fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

Boylikni bir soniyada yo'qotish mumkin. Lekin bilim va hunarni hech kim tortib ololmaydi. Inson eng qiyin vaziyatlarda ham o'z hunarini ishga solib, qiyinchiliklarni yengishi mumkin.

Hunarga tinimsiz mehnat va harakat orqali erishiladi.



She'rni ifodali o'qing.